



«TASDIQLAYMAN»
“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Boshqaruv raisi o'rinbosari v.b.:
B.Sharipov

«15» iyun 2026 y.
№ 61

**Pre-collection bosqichidagi mijozlarga avtoqo'ng'iroqlarni amalga
oshirish uchun audio matnlarni tayyorlash uchun**

TEXNIK TALABNOMA

Muammoli aktivlar bilan ishlash va undiruv departamenti

Toshkent 2026 yil

Loyiha nomi

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB mijozlariga ularning kafillari va qo‘shimcha qarzdorlariga kredit to‘lovlari to‘g‘risida oldindan ogohlantirish hamda kechiktirilgan kredit qarzdorliklar bo‘yicha ovozli xabarnomalarni profesional audiodiostudiya sharoitida ovozlashtirish bo‘yicha texnik topshiriqnoma.

1. Loyihaning maqsadi

Mijozlarning kredit to‘lov intizomini yaxshilash, qarzdorlik darajasini pasaytirish hamda mijozlarga o‘z vaqtida ma‘lumot yetkazish maqsadida yuqori sifatli ovozli xabarnomalar tayyorlash.

Ovozli xabarnomalar O‘zbek va Rus tillarida tayyorlanadi.

2. Ovozli xabarnoma matnlari

2.1. To‘lov sanasigacha ogohlantirish

Til	Matni
O‘zbek tili	<p>Assalomu aleykum, Hurmatli mijoz! Biznesni Rivojlantirish Banki tomonidan Sizga ajratilgan kredit bo‘yicha to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirishingiz so'raladi.</p> <p>To'lovlarni mobil ilovalar yoki bank kassalari orqali amalga oshirishingiz mumkin. Shuningdek, to'lovlarning o'z vaqtida amalga oshirilishi kredit tarixingizni yaxshilash va kelajakdagi moliyaviy imkoniyatlaringiz uchun juda muhim hisoblanadi. Ma'lumot uchun 1254 qisqa raqamiga murojaat qilishingiz mumkin.</p>
Рус	Здравствуйте, Уважаемый клиент! Просим вас своевременно

тили	<p>осуществлять платежи по кредиту, предоставленному вам со стороны Банка развития бизнеса.</p> <p>Платежи можно осуществлять через мобильное приложение или кассы банка. Также своевременное внесение платежей очень важно для улучшения вашей кредитной истории и ваших будущих финансовых возможностей. Для получения дополнительной информации вы можете обратиться по короткому номеру 1254.</p>
------	---

2.2. Muddati o'tgan kredit qarzdorligi mavjud mijozlar uchun

Til	Matni
O'zbek tili	<p>Assalomu aleykum, Hurmatli mijoz! Biznesni Rivojlantirish Banki tomonidan Sizga ajratilgan kredit bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik mavjud. Ushbu qarzdorlikni mobil ilovalar yoki bank kassalari orqali 3 kun muddatda amalga oshirishingiz so'raladi. Aks holda qarzdorlikni majburiy tarzda O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi orqali undirish choralari ko'rilishi to'g'risida ogoxlantiramiz. Bundan tashqari, shartnomaga asosan kechiktirilgan har bir kun uchun penya va jarimalar hisoblanishini ma'lum qilamiz. Qo'shimcha ma'lumotlar uchun 1254 qisqa raqamiga bog'lanishingiz mumkin.</p>
Рус тили	<p>Здравствуйте, Уважаемый клиент! Сообщаем вам, что по кредиту, предоставленному вам со стороны Банка развития бизнеса, имеется просроченная задолженность. Просим вас погасить данную задолженность в течение 3 дней через мобильное приложение или кассы банка. В противном случае предупреждаем, что будут приняты меры по принудительному взысканию задолженности через Бюро принудительного исполнения при Генеральной прокуратуре Республики Узбекистан. Кроме того, информируем, что в соответствии с договором за каждый день просрочки начисляются пени и штрафы. Для получения дополнительной информации вы можете обратиться по короткому номеру 1254.</p>

2.3. Kafillar va qo'shimcha qarzdorlar uchun

Til	Matni
O'zbek tili	Assalomu aleykum, Hurmatli mijoz! Siz kafil bo'lgan Biznesni Rivojlantirish Banki mijozlari kredit shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganligi sababli, muddati o'tgan qarzdorlik yuzaga keldi. Ushbu qarzdorlikni qisqa muddatlarda bartaraf qilish choralari ko'rishingiz so'raladi, aks holda O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi orqali majburiy undirish choralari ko'riladi. Bundan tashqari, shartnomaga asosan kechiktirilgan har bir kun uchun penya va jarimalar hisoblanishini ma'lum qilamiz. Qo'shimcha ma'lumotlar uchun 1254 qisqa raqamiga bog'lanishingiz mumkin.
Рус тили	Здравствуйте, Уважаемый клиент! В связи с тем, что клиент Банка развития бизнеса, по кредитному договору которого вы являетесь поручителем, не исполнил свои обязательства надлежащим образом, образовалась просроченная задолженность. Просим вас в кратчайшие сроки принять меры по погашению данной задолженности, в противном случае будут приняты меры по принудительному взысканию через Бюро принудительного исполнения при Генеральной прокуратуре Республики Узбекистан. Кроме того, сообщаем, что в соответствии с договором за каждый день просрочки начисляются пени и штрафы. Для получения дополнительной информации вы можете обратиться по короткому номеру 1254.

3. Ovoz yozish bo'yicha talablar

3.1. Audioyozuv formatlar

Ovozli yozuvlar quyidagi formatlarda bo'lishi lozim:

Asosiy master fayl:

- ⌚ WAV;
- ⌚ 48 kHz;
- ⌚ 24 bit;
- ⌚ Mono;
- ⌚ PCM Uncompressed.

Qo'shimcha formatlar:

- ⌚ WAV 16 bit;
- ⌚ MP3 320 kbps;
- ⌚ MP3 192 kbps.

3.2. Audioyozuvga sifat talablari

- ⌚ Fon shovqini mavjud bo'lmashligi;
- ⌚ Klipping va buzilishlar bo'lmashligi;
- ⌚ Barcha fayllarda ovoz balandligi bir xil darajada bo'lishi;
- ⌚ Loudness: -16 LUFS dan -19 LUFS gacha;
- ⌚ Peak Level: -1 dB dan yuqori bo'lmashligi;
- ⌚ Har bir xabarnoma alohida fayl sifatida taqdim etilishi.

4. Ovoz muallifi (diktorga) qo'yiladigan talablar

Asosiy talablar

- ⌚ Aniq va ravon talaffuz;
- ⌚ Emotsional bosimsiz, ishonchli va rasmiy uslub;
- ⌚ O'zbek tilida adabiy talaffuz;
- ⌚ Rus tilida neytral aksent;

Qo'shimcha talablar

- ⌚ Erkak va ayol ovoz variantlari taklif qilinishi;
- ⌚ Buyurtmachi talabiga ko'ra qayta yozish imkoniyati;
- ⌚ Ovoz namunasi taklifi taqdim qilinishi.

5. Studiyaga qo'yiladigan talablar

- ⌚ Professional ovoz yozish studiyasi mavjudligi;
- ⌚ Studiyada doimiy faoliyat yurituvchi ovoz rejissyori mavjudligi;
- ⌚ Professional mikrofon va audio interfeyslardan foydalanilishi;
- ⌚ Shovqinsiz yozish muhiti;
- ⌚ Har bir yozuv alohida ko'rinishda va birlashtirilgan holatda bo'lishi.

6. Topshirish natijalari

Bajaruvchi quyidagilarni taqdim etadi:

- ⌚ Barcha tillardagi tayyor audio fayllar;
- ⌚ Montaj qilingan master fayllar;
- ⌚ Matn ssenariylari;
- ⌚ Qabul qilish-topshirish dalolatnomasi.
- ⌚ Fayllar arxivlangan (Win/rar) formatda bo'lishi lozim.
- ⌚ Arxiv fayllar USB xotira qo'rilmasida taqdim qilinadi.

7. Axborot xavfsizligi talablari

- ⌚ Mijozlarga oid ma'lumotlardan foydalanmaslik;
- ⌚ Bank ma'lumotlarining maxfiyligini ta'minlash;
- ⌚ Barcha materiallarni uchinchi shaxslarga bermaslik;
- ⌚ Loyiha tugagach bank talabiga muvofiq fayllarni yo'q qilish.

kelishuvchilar: M.Valiev, A.Xakimov

<https://hujjat.brb.uz/?pin=xJ53cJ76&id=b22e5ac4-8a74-4fe8-9913-0fb4c43b1ea2>